ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ

САМАРҚАНД ДАВЛАТ ЧЕТ ТИЛЛАР ИНСТИТУТИ

РОМАН-ГЕРМАН ФИЛОЛОГИЯСИ ФАКУЛЬТЕТИ

Магистр ва талабаларнинг анъанавий XX илмий-амалий конференцияси МАТЕРИАЛЛАРИ

Ушбу тўплам Самарқанд давлат чет тиллари институти Илмий Кенгашининг 2014 йил 2 июндаги 11-сонли баённомаси билан нашрга тавсия этилган.

САМАРҚАНД-2014

МУНДАРИЖА

Ризаев Б.Ҳ.	Сўзбоши	3
Bekmuradova Z.	Monteskyoning “fors nomalari” qissasi matnining lingvo-poetik tahlili	4
Бегматов Қ.М.	Пайт эргашли қўшма гапларда синтактик-семантик маъноларнинг фодаланиши	8
Absalomova G	Hozirgi fransuz tilida “hayvon” semali frazeologizmlar va ularning asliyat bilan bog’liqligi	10
Azimova Z.I.	Navoiy ijodi xorijda	14
Kazakov T.A.	Ingliz tilidagi ba’zi bir iboralarning etimologik jihatiga doir	16
Расулова М.	Хорижий тил таълимида ўйин тарзидаги дарсларни ташкил этишнинг ўзига хос хусусиятлари	18
Севарбоева М.	Немис тилида иловали қурилманинг структуравий ўзига хосликлари	20
Раҳмиддинова Б.	Немис тилида иловали элементларнинг гуруҳларга ажратилиши	22
Мухамадиева М.	Рамочная конструкция - феномен синтаксического строя немецкого языка	24
Даниёрова Б	Виды общественно-политического дискурса	26
Юсупова М	Когнитивный сценарий в художественном тексте	29
Ҳайитова С	Французча рекламаларда икки нуқтанинг коммуникатив имкониятлари	31
Неъматова М	Ҳозирги француз тилида *non* инкорининг синтактик структуралари	36
Aliyeva G.	Fransuz tili frazeologik birliklarining etimologiyasi hamda ularning lingvo-poetik tahlili	38
Sharipov B.	Fransuzcha antonim frazeologik birliklarning o‘ziga xos struktur-semantik xususiyatlari	43
Sharipov B.	Fransuz xalq maqollaridagi komponentli oppositsiya	46
Oblaeva M.	Referenzrahmen in den Fremdsprachen	49
Nurmurodova Kh.	Projektarbeit im Da Unterricht	51
Cholmöminov A.	Popliteratur in Deutschland	52
Ismoilova M	Fransuz tilida mantiqiy ega va uning ifoda vositalari	54
Davronova U	Qofiyadosh frazeologik iboralarning fonetik xususiyatlari	57
Расулова М.	Семантичский анализ терминов техники в итальянском языке	59
Ergashova B.	Italo Kalvio ijodida yoshlar mavzusi	63
Hamrayeva Z.	Fransuz tilida predlogli frazeologik birikmalarning qo`llanilishi	64
To‘raqulova M	Fransuz frazeologiyada takroriy elementlar tahliliga doir	66
Tolliyev O.	Fransuz tilidagi aforizmlarda zamonlar tasnifi	68
Мирбобоев Ф.	Француз тили ва маданияти тараққиётида Шарқ тилларидан ўзлашган сўзларнинг роли	70
Shodiyeva N	Askanio – o’lmas sadoqat qissasi	72
Шарипов Б	Инглиз тилида лексик ва фразеологик антонимия тамойилларининг мослашувига доир	75
G’aybullayeva M	O’zbekiston va Hindistonda ingliz tilining chet tili sifatida o’rgatilishining zamonaviy metodlari	79
Қулматова Д	Француз тилида вергулнинг ишлатилиши	81

Sayfullayeva K	Fransuz matnlarida artikl shakllarining stilistik maqsadda qo'llanishi	85
Boyqobilova H	La expresión de acuerdo y desacuerdo en español	87
Haydarova F	El Enfoque comunicativo en la enseñanza de lexico	89
Yaxshiyeva H	Las colocaciones léxicas en el español actual	92
Сохибова Н	Прагматические свойства испанских народных сказок	94
Хўжанова Ҳ	Грамматик маъно ва уни француз ёзма ва оғзаки нутқида ифодалашнинг фономорфологик воситалари	96
Xudoyberdiyeva M.	Britaniya va Amerika ingliz tilisining farqli jihatlari	98
Elmurodova R.	English proverbs and their equivalence in french	102
Boyqobilova H.	Ingliz tilini o'rganishning tez va samarali usullari	105
Umarova K.	Die Rolle des Lehrers/der Lehrerin im Unterricht des Deutschen als Fremd und Zweitsprache	108
Haydarova F	Ingliz tili va ispan tilida artiklni qiyoslab o`rganish	111
Бурхонов У.	Хуан Гайтисоло Гай ижоди	113
Ochilova H.	Fransuz va ingliz tillarida artiklning turlari	115
Jabborov A.	Fransuz tilida sufikslar ot yasalishida asosiy vosita sifatida	117
Shukurova F.	O'zbek va italyan tillarida rod kategoriyasi	119
Ergashova B.	Nikkolo ammaniti xxi asr italyan o'smirlar adabiyotining yirik namoyondasi	123
Bagirova S.	Clasificación de los verbos en español	125
Eshoqulova A.	Sog`lom bola – yurt kelajagi	129
Ҳасанова Ю.	Шеърнинг синтактик қурилиши ва унинг таржимада акс этиши	132
Mardonova P.O.	Handlungsorientierter unterricht beim sprachenlernen	135
Maxmudova F.	Fransuzcha frazeologik iboralarda qiyoslash kategoryasi	138
Hukumova Y.	Xatolardan o'rganamiz	141
Аҳмедова Г.	Томас манннинг ҳаёти ва ижоди	143
Murodova N.	Shimoliy italiyada til va dialektlarning o'zaro farqi	145
Naimova P.	Yashayapmiz, demak baxtlimiz	148
Ziyadullayeva M.	"Ci" yuklamasining ishlatilishi	149
Shakarova M.	Ekologik muammolardan biri – chiqindilar	152

Ҳозирги француз тилида ахборот икки шаклда тақдим этилиши мумкин: тасдиқ ва инкор шаклларда. Тисдиқ ва инкор ахборотни реаллаштирувчи лингвистик воситалар тилшунослар томонидан чуқур ўрганилган (А.А.Андриевская, M.Arrivé, SauvageotA). Инкорни ифодалашучун француз тилида ne нинг иккилами инкор сўзлар билан қўлланилиши кузатилади: инкор юкламалар ni, pas(point, guerre), инкор равишлар (jamais, plus, nullement, aucunement), инкор олмошлар (personne, rien, nul, aucun etc.(бу тўғрида қаранг: А.А.Андриевская, Н.А.Шигаревская, Л.И.Илия, В.Г.Гак).Бироқ айнан бир хил инкор шакл ёрдамида (ne … pas, ёкиnе … plus,ваҳ.к.) берилаётган инкор ахборот объектлари мулоқот вазиятига кўра олмашиниб туриши мумкин. Қиёслаб кўрайлик: Mon ami n'a pas de livres chez lui. Mon ami n'a pas de livres français chez lui. Биринчи мисолда инкор объекти «китоб» тушунчаси бўляпти, яъни дўстимнинг уйида китобларнинг бутунлай йўқлиги ҳақида ахборот бериляпти. Иккинчи мисолда эса инкор объекти умуман «китоб» тушунчаси эмас, китобнинг *français* сифати англатаётган маълум бир тури бўляпти, яъни дўстимнинг уйида китобларнинг қисман, фақат французча китоблар йўқлиги ҳақида ахборот бериляпти.

Маърузамизнинг **асосий мақсади** – француз тилида инкор ахборотни тақдим этишда non инкорининг ўрнини аниқлаш ва унинг ёрдамида бажариладиган инкорнинг коммуникатив функцияларини тизимлаштиришдан иборатдир. Кузатишларимиз француз ёзувчиларининг баддий асарларидан йиғилган 800 данор тиқроқ мисолларга ва французтилининг энг янги изоҳли луғатлари маълумотларига асосланди.

Non кўп функцияли сўз бўлиб тилшуносолимларнинг эътиборини узликсиз равишда ўзига тортиб келмоқда. Французтилининг традиционграмматикаларида *non* сўзи равиш (DamouretteJ., PichonE.), модалсўз (AugeP.,BrunotF.,), ундовсўз (GrévisseN.,NyropKr., Илия Л.И.), инкор морфема (Шетинкин В.Е.), ёрдамчи предикатив сўз (HatsfeldA.,DarmsteterA.,ThomosA.), сўз-гап (GougenheimG., Гак В.Г.), префикс (Реферовская Е.А., Васильева М.А., Щтейнберг Н.М.), инкорюклама (Илия Л.И.) сифатида қайд этилган. *Si* юкламаси билан бирикиб, *non* мураккаб *si non* боғловчисини ҳосил қилади ва боғловчи, айрим ҳолларда эсапредлог сифатида ҳам тасниф этилган.

Мазкур мақолада биз эътиборимизни **non** инкорининг фақат биргина синтаксик структураларини тизимлаштиришга ҳаракат қилдик.

Мисолларимиз таҳлили инкор семанинг ифодаланиш ўрнига қараб **non** сўзининг қуйидаги синтактик структураларини ажратишимизга имкон берди:

1. C'était à elle de choisir, **non** à lui (Simenon).- Le petit Lapointe, comme on disait au Quai, **non** à cause de sa taille, mais parce qu'il était le plus jeune (Simenon). **Non** инкор юкламаси кесимга эмас, балким гапнинг иккинчи даражали бўлакларига – ҳол сўзларга тегишлидир: à elle – non à lui, non à cause de sa taille – mais parce qu'il était le plus jeune. Қисман инкор ахборотни

шакллантирувчи қарама-қарши қўйишлар мазмунан турличадир: биринчи мисолда – жинс бўлса, иккинчи мисолда эса айнан бир шахснинг бўйи ва ёши.

2. Une allée **non** éclairée y conduit (Simenon). – Il était nu tête, ses cheveux bruns en désordre, les joues **non** rasées (Simenon). – Il était allé voir seul, **pas** rasé[11], une façade d'hôtel (Simenon). – **Non** ва pas юкламалари аниқловчига тегишлидир.

3. A ce que j'ai compris, il est chef du personnel et **non** directeur commercial (Simenon) – Il commandait **non** un cognac, mais un café (Simenon).

Биз гапларда қандайдир предметлар ёки сифатларнинг қарама-қарши қўйилиши ифодаланган: chef du personnel – **non** directeur commercial; **non** un agnac – mais un café – отлар олдида қўлланилган **non** инкор ёрдамида тўлдирувчи ва откесим каби уюшиқ бўлаклар қарама-қаршиқ ўйиляпти. Тақдим этилаётган инкор ахборот қисман инкор ахборотдир: инкор тасниф бутун гапга эмас, иккинчи даражали гап бўлакларидан биттасигагина тегишлидир.

4.– **Non** une garantie de paix, mais un danger de guerre! (Martin du Gard). – j'ignore si le fait que vous n'êtes pas de même race joue un rôle ou **non** (Simenon).

- биринчи мисолда икки тушунча қарама-қарши қўйилаётган бўлса, иккинчисида **non** инкори **ou** ажратувчи боғловчиси ёрдамида гапнинг олдинги тасдиқ бўлагига боғланаяпти ва шу йўл билан альтернатив қурилмани ҳосил қиляпти (…роль ўйнайдими ёки йўқми).

5. – La chambre, à gauche, si je me souviens bien? – Oui . **Non seulement** une chambre, **mais** un appartement (Simenon); - Vous y étiez encore vers dix heures? – **Non seulement** à dix heures, **mais** à deux heures du matin (Simenon).- чегараловчи инкор обороти ёрдамида фактлар қарама-қарши қўйиляпти: нафақат бир хонани, балки бутун квартирани ҳам; нафақат соат 10 да, балки соат эрталаб иккида ҳам. Демак, от олдида қўлланадиган **non** нутқда ҳар хил коммуникатив мақсадларга хизмат қилади. Унинг мулокот жараёнидаги вазифаларини, маъно ҳажми аниқловчи асосий факторлар қаторига контекстни, яъни тилнинг лексик ва грамматик воситалари мажмуини киритишимиз мумкин.

Non ва pas инкор юкламаларининг синонимик хусусиятлари ва дифференциал белгилари масаласи мазкур мақолада ўрганилмаяпти. Улар алоҳида кузатиш мавзусини ташкил қилиши мумкин.

FRANSUZ TILI FRAZEOLOGIK BIRLIKLARINING ETIMOLOGIYASI HAMDA ULARNING LINGVO-POETIK TAHLILI

*SamDChTI 1-kurs magistranti **Aliyeva G.***
*Ilmiy rahbar: f.f.n. **N.Suvonova***

Fransuz tili dunyoda ommaviyligi bilan asosiy o'rinlardan birini egallab kelmoqda, hamda chet tili sifatida o'rganilish darajasi bo'yicha 2-o'rinni egallaydi. Ko'pgina olimlarning hisob-kitoblariga ko'ra, hozirda 200 milliondan ortiq kishi shu tilda gapiradi. Fransuz tili Birlashgan Millatlar Tashkilotining (BMT) 6 ta

rasmiy tillaridan biri sanaladi. Bu tildan psixologiya, falsafa, huquq, tibbiyot sohalaridagi xalqaro ilmiy konferensiya va simpoziumlarda foydalaniladi.Badiiy matn tarjimasida kuzatilgan asosiy muammolardan biri frazeologizmlar tarjimasidir . Ushbu holdan kelib chiqib frazeologik birlashma va uning tarjimadagi ifodasini o'rganish tarjimon oldidagi muammolarni biroz bulsada yengillashtiradi. Frazeologik birliklarning tarjimasi bilan bir qatorda ularning kelib chiqish tarixi ham juda qiziqdir.

Etimologiya aslida grekcha ''etumologia'', ''asl ma'no'' so'zidan kelib chiqqan. Etimologiya har bir so'zning kelib chiqish tarixini evolyutsiyasini o'rganuvchi tilshunoslikning bir bo'limidir. Etimologiyada so'zlarning kelib chiqishi aniqlanadi, frazeologiyada tilning lug'at boyligidagi ko'chma ma'noli turg'un konstruksiyalar frazemalar xususida bahs yuritiladi.

Har bir so'z, frazeologik birliklar ham o'zining kelib chiqish tarixi etimologiyasiga egadir. Ma'lum bir davrda , maskanda paydo bo'lgan frazeologik birliklar hozirda turli adabiyotlarda , so'zlashuv tilida keng qo'llaniladi .

Demain , on rase gratis! – ushbu ibora Fransiyada yolg'onchi, vadabozlarga nisbatdan ishlatiladi. Aslida bu iborani kelib chiqish tarixi yaqin o'tmishga borib taqaladi.

Kunlardan bir kun Fransiya ko'chalaridan birida yangi sartaroshxona ochiladi va uning kirish peshtoqida *Demain, on rase gratis* ya'ni ertaga sartaroshxona hizmatlari tekin buladi degan afisha chiqarilib quyiladi. Bu hiylani anglamagan mijozlarning keti uzilmay qoladi. Ular har kuni ertani kutishar lekin har doim bugun soch oldirishga to'g'ri kelardi. Shundan so'ng vadaboz, yolg'onchilarga qarata ushbu ibora is'temolga kirib keldi .

Misol uchun Fransiyada eng ko'p ishlatiladigan FBlardan biri bo'lgan *"Parler francais comme une vache espagnole''* iborasining kelib chiqish tarixiga e'tibor beradigan bo'lsak . Tarjimasi: fransuz tilida juda ham yomon gapirmoq. Tarix zarvaraqlarining xabar berishicha bu ibora ilk marotaba 1640 yilda keng tarqalgan . Ya'ni 373 yil oldin iste'molga kirib kelgan. Bu tarixiy iboralar guruhiga kiradi . uning kelib chiqish tarixi Bask qabilasi bilan bog'liqdir. 17 asrlarda Basklar qabilasi bir jamoa bo'lib Ispanlar bilan chegaradosh qushni bo'lib yashashgan ekan. U yerda fransuz tilini o'rgatadigan faqatgina bitta maktab bo`lib u yerda fransuz tilini o`rgatuvchi yagona o`qituvchi bol`gan ekan. O`sha davrda ispanlar chorvachilikda ilg`or bo`lishgan. Ular boqqan har bir sigir juda ham kop` sut berar va har doim tinimsiz kavsh qaytarib turarkan. Maktabda ishlovchi fransuz tili o`qituvchisi fransuz tilini juda ham tez gapirar, uning gapini hech kim tushunmas va anglay olmas ekan.chunki u tilni yaxshi bilmas, o`zini bilimdon ko`rsatish maqsadida nafas olmasdan tez gapirar edi. Uning gapirishini xuddi tinimsiz kavsh qaytaradigan sigirga qiyoslashardi. O`shandan boshlab fransuz tilini buzib, tushunarsiz gapiradiganlarga nisbatan ushbu ibora qo`llannilib kelinmoqda.

Quyidagi iboradan asarlarda va mutoyibalarda ham keng qo`llaniladi.

« Jacques Collin parlait le francais comme une vache espagnol » .

Petite anecdote amusante : a l`issue de la finale de Roland-Garros de juin 1993 entre Jim Courier, Americain et Sergi Bruguera, espagnol ce dernier, vainqueur du match, baragouine quelque paroles dans un francais plus

qu`approximatif, alors que Courier, dans un tres bon francais, s`est excuse de parler notre langue comme une vache espagnol, en regardant de facon appuyee son adversaire.

« Fin comme une dague de plomb » - kaltafaxm, zehni past odam.

Bu iboraning kelib chiqish tarixi Rable ijodiga borib taqaladi. Rable o`zining « Gargantua va Pantegruel » asarida bosh qahramon hisoblangan Pantegruel tomonidan kesatiq gaplarga aynan mana shu iborani ko`p marotaba ishlatgan. Hozirgi fransuz tilida ushbu iboraning ekvivalenti sifatida « Fin comme du gros sel » iborasi ishlatiladi. Ya`ni, kaltafaxm, gapga darrov tushunmaydigan insonlar uchun aynan mana shu ibora qo`llaniladi. Bu ibora ayni vaqtda tarixiy iboralar turiga mansubdir.

Il est fin comme une dague de plombe, se dit d`un homme qui, ayant l`esprit grossier, veut faire le fin.

« C`est un coq de paroisse – Qishloqning eng oldi yigiti ».

Bu ibora XVII asrda fransiya qishloqlarining birida paydo bo`lgan. O`sha davrda qishloqning erkaklari, yigitlari oilasini boqish uchun pul ishlash maqsadida turli xil shaharlarga borib ishlab kelishar edi. Shu qishloqda bir boy zodagon yashar ekan. Uning yakkayu yagona o`gli bo`lib, u yalqovligi, beuxshovligi bilan don taratgan edi. Boy farzandini uylantirish maqsdida kelin axtarib ko`p joylarga boribdi. Sovchilikka borganda boy o`glini tarifini osmonlarga kotarar va ushbu iborani *« c`est un coq de paroisse »* tinimsiz takrorlagan ekan. Shu shu qizlar yigitni ko`rganda yuqoridagi iborani aytib axmoq qilishar ekan. Ushbu ibora hali-hanuz qo`lidan ish kelmaydigan maqtanchoq yigitlar uchun keng qo`llanilib kelmoqda.

« C`est (un) Saint-Jean Bouche d`or – Vaysaqi, safsataboz, nokamtar oda m ».

Bu ibora juda ham qadimiy hisoblanib uning kelib chiqish tarixi IV asrga borib taqaladi. Saint-Jean Bouche provaslav cherkovining eng katta ruhoniysi bo`lib u ibodat qilishga kelgan odamlarga va`z o`qir edi. Uning va`zlari uzundan uzoq davom etar edi. Lekin gaplaridan ma`noni anglab olishn juda qiyin edi. Bora-bora qishloq odamlari cherkovga yurak yutib borolmay qolishddi. Saint-Jean Boucheni ko`rgan yoshu qari undan xuddi zaharli ilonni ko`rganday qochib ketishardi. Shu shu fransiyada safsataboz, vaysaqi odamlarga nisbatan *« c`est (un) Saint-Jean Bouche d`or »* yoki *« parler comme Saint-Jean Bouche d`or »* deyiladigan bo`ldi.

« Rossignol (roussin) d`arcadie. Arkadiya bulbuli, eshak ».

Bu ibora XIX asrning eng mashxur iboralaridan hisoblanib, uning rivojlanishi texnika asri bilan bo`gliqdir. Arkadiyalik bo`lgan bir qator yoshlar musiqiy guruh tuzib shaharma shahar o`z istedodlarini namoyish qilib yurushar edi. Bir kuni ular navbatdagi ijodiy safar vaqtida jo`shib kuylayotgan edilar. Shu vaqtda qandaydir texnik nosozlik berdiyu to`satdan yigitlarning ovozi o`chib qoldi. Noiloj qolgan yigitlar sharmandalik holatdan chiqib ketish maqsadida o`zlari kuylay boshlashdi. Lekin ularning ovozlari xuddi eshak hangragandan battar darajada xunik edi. Shu sababli Arkadiya bulbuli guruhi tanazzulga uchrab tarqalib ketdi. Xalq ichida esa ovozi yo`q xonandalarga nisbatan shu ibora qo`llanila boshladi.

« Ne pas en fiche une datte- tuprog'i yengil »

Bu iboraning kelib chiqish tarixi muqaddas kitob bo'lgan "Injil" ga borib taqaladi. Keyinchalik ko'plab lug'atshunos olimlarning izlanishlari natijasida shakillangan. Avvalo olimlar *« la datte »* so'ziga e'tibor qaratishadi. Ushbu so'zning ma'nosi meva ya'ni hurmo mevasidir. Kitobda yozilishicha ushbu meva paydo bo'lgandan nechi yillar o'tsada hech meva solmasdi oradan ancha yillar o'tib dexqonlaning say harakatlari bilan hurmo daraxti meva soladi lekin u solgan meva juda ham yengil sal shamolga ham uchib ketardi. Shundan so'ng xalq ichida muommilaga qarab vaziyatga qarab o'zgaradigan insonlarga qarata ushbu ibora qo'llaniladigan bo'ldi. Ushbu iboraning ma'nodoshi sifatida *« avoir les pieds nickelés »* qo'llaniladi.

« Ne pas revenir comme le corbeau de l'Arche-dumini ham tutqizmaslik, qorasini ham ko'rsatmaslik »

Bu iboraning kelib chiqish tarixi ham "Injil" kitobi bilan bog'liqdir. Ushbu kitobdagi rivoyatlarga ko'ra afsonaviy to'fonda Nuh, uning oilasi va hayvonlar saqlanib qolingan kemaning nomi "l'Arche de Noé" deb atalar ekan. Kunlardan bir kuni qattiq to'fon boshlanib yer yuzidagi mavjudotlarga zarar keltira boshlaydi. Usha vaqtlarda hattoki qushlar ham yer yuzida yashar ekan.Shunda Nuh payg'ambar jonivorlarga yordam berish maqsadida kema yasab jamiki jonivorlarni kemaga joylaydilar. Oradan ancha vaqt o'tib ularni yemaklari nihoyasiga yeta boshlaydi. Shu fursatdan unumli foydalangan mug'ombir qarg'a esa o'rtorlarini ovqatlariga ko'z tika boshlaydi. U turli hil hiylalar qilib ko'proq ovqat yeyish payida bo'lar edi. Bora-bora uning bu shumliklarini bilib qolgan boshqa jonivorlar uni kemadan haydashni ovozga qo'ya boshlaydilar lekin ayyor qarg'a esa o'zini bechorahol ko'rsatib rahmni keltiruvchi bahonalar qilib kemada qolishni payida bo'ladi. Ertansi kuni esa kemadaga barcha ozuqani paqqos tushirib qochib qolibdi. Shundan beri qarg'a yer yuziga faqatgina qish mavsumida hayvonlar yuq vaqtda tushar ekan chunki biror jonivor undan o'ch olishi mumkin ekanda. Xalqda esa nonko'r odamlarga nisbattan aynan mana shu ibora keng qo'llaniladi.

« Né dans la pourpre- podshohning merosxo'ri »

Ushbu iboraning tarixi Yunon urf-odatlari bilan bog'liqdir . Lug'atshunos olimlarning izlanish olib borishlaricha "*pourpre*" yani duhoba rang antik davrda yunon qirollarining kiyimini asosiy qismini tashkil etar edi. Ayniqsa molyuska surati tushirilgan duhoba rangli kiyimlar eng ko'rkam va qimmatbaho hisoblanardi. 19 asrning o'rtalariga kelib Fransiyada bu ibora qo'llanila boshlagan ayniqsa adabiyotlarda yozuvchilar keng doirada ishlatgan. Bu ibora tantiq , maqtanchoq yigitchalarga nisbattan kesatiq ma'nosida ishlatilgan . hozirgi kunda ham ushbu ibora mashxurdir. Uning ma'nodoshi sifatida " *naitre dans la outre*" iborasi ishlatiladi. Bu ibora kundalik iboralar turiga kiradi.

« Ne pas valoir un pet de lapin-bir chaqalik ham qadri yo'q »

Ushbu ibora XIX asrda uslubchi olimlar tomonidan tilga kirib keldi. Ular metaforada *pet* so'zidan o'z qadrinini yo'qotgan , bir chaqaga arzimaydigan odamlarga nisbatan ishlatishgan. Ular yanada bo'yoq berish maqsadida *lapin* ya'ni quyon obrazini ham qo'llashgan. Chunki quyon o'rmon hayvonlari ichida eng qo'rqoq, o'z obro'sini to'kadigan hayvon hisoblangan shuning uchun ham aynan

quyon obrazini tanlab olishgan. Xalq ichida qo'rqoqligi, yolg'on gapirishi tufayli obro'-izzatini yo'qotgan odamlarga qarata ushbu ibora hanuz keng qo'llanilib kelinadi. Bu iboraning ma'nodoshi sifatida qo'yidagi iboralar ham qo'llaniladi.

« Ne pas valoir tripette, ne pas valoir un clou »

« C'est un Roger bontemps-g'amsiz, betashvish »

Bu ibora qadimgi ibora hisoblanib uning kelib chiqish tarixi 14 asrga borib taqaladi. Fransiya qishloqlarining birida asli kelib chiqishi zodagonlardan bo'lgan Roger ismli bir o'rta yoshlardagi odam ko'chib keldi. U ko'chib kelgan qishloq shoh zulmidan har kun aziyat chekardi. U yerda hech kim kulmas hamma g'amga botgan edi. Bu holatni ko'rgan Roger davlat odamlaridan o'ch olish maqsadida turli hil hiylalar o'ylab topa boshladi. Tabiatdan o'ta hazilkash bo'lgan Roger og'ir vaziyatlarga tushib qolganda ham kulgi bilan yengardi. U turli hil masxaromus so'zlari bilan davlat odamlarini haqoratlar bundan qishloq ahli ichagi uzilib kular edi. Bu qishloqda ham sekin – sekin quvnoqlik kirib kelgandi. Rogerning bu ishlari shohning qulog'iga chalinadi va uni jazolashga buyiradi. Roger esa hattoki o'limi oldida ham quvnoq tarzda vafot etadi. Shoh esa xalqiga hukumatning ustidan kulganning ahvoli shu buladi deb "C'est un Roger Bontemps'' iborasini ishlatadi. Shundan keyin xalq ichida betashvish , hattoki qo'llanila boshladi. O'zbek tilida « Dunyoni suv bossa o'rdakka ne g'am » iborasi ham ushbu iboraga qisman to'g'ri keladi chunki bu ibora ham ijobiy ham salbiy tarzda tahlil qilinadi. Buning ikki hil tarjimasi mavjuddir ya'ni g'amsiz odam ikkinchisi esa loqayd kishilarga nisbattan ham qo'llaniladi. Hozirgi kunda eng ommaviy iboralar qatoriga kiradi.

« C'est un petit maître-olifta odam »

Bu iboraning kelib chiqishi 1789-yillardagi revolyutsiya bilan bog'liqdir. Usha yili Parishda asli Belgiyadan bo'lgan matematika o'qituvchisi paydo bo'ladi . Uning ko'rinishi juda badbashara lekin kiyinishi olifta po'rim edi. U hech kimni nazariga ilmas, manman o'ta zamonaviy edi Shu yerda yashovchi aholi uni *C'est un petit maître* deb atashar edi. Muallim uchun bu huddi maqtovdek tuyilar aslida esa bu piching, kinoya tariqasida xalq tomonidan ishlatilgan edi. Shundan so'ng olifta , manman , ayolsifat erkaklarga kinoya tarzida ushbu ibora keng qo'llanila boshlagan.

Ushbu iboraning ma'nodoshi sifatida « C'est un dandy » iborasi ham ishlatiladi.

Exemple d'utilisation : Un petit – maître , avec ses grimaces est aussi loin caractère d'un galant homme, qu'un faux dévot , avec son air sanctifié , est éloigné du caractère d'un homme véritablement religieux. (J.F. Féraud : Dictionnaire critique de la langue francaise).

« C'est Byzance – bashang »

Ushbu ibora XIX asrda is'temolga kirib kelgan bo' lib uning kelib chiqish tarixi Byzance shaharchasi bilan bog'liqdir. Bu shaharchani nomi uning yaratuvchisi bo'lgan Byzance nomi bilan atalgan. Uning ma'nosi mo'l-ko'lchilik, farovonlikdir. Trignol o'z asarlarida bosh qahramon sifatida Byzance obrazini tanlab oladi va u ushbu iborani argo sifatida adabiyotga tadbiq etadi. O'z davrida zamonasining old odamlaridan bo'lgan Byzance qiyofasini yozuvchi ironiya tariqasida ham ishlatadi.

Exemple d'utilisation : Une robe longue, des bijoux comme s'il en pleuvait , du noir aux yeux , mais c'est Byzance . (G.Guéguan).

« Charger la mule- lof urmoq »

XVIII asrning boshlarida asosiy trasport vositasi sifatida ot va eshaklardan foydalanishgan. Usha davrning mashxur qiziqchi rassomlari eshak va xachirlarning ustiga tog'ni rasmini chizib mutoyiba qilib yurishgan. Shundan so'ng qo'shib lof bilan gapiruvchi insonlarga nisbattan *Charger la mule* iborasi keng qo'llaniladi.

« Avoir la grosse tête-shuhratparast »

Bizga ma'lumki Fransiya o'zining turli hil ball , maskaradlari bilan mashxurdir.

Avoir la grosse tête iborasining kelib chiqishi ham bevosita maskarad bilan bog'liqdir. Bilamizki maskaradda har bir kishi niqob bilan ishtirok etishi shart va zarurdir. Shunga ko'ra bir zodagon boshqalarnikidan tubdan farq qiladigan niqob o'ylab topish maqsadida ancha kun harakat qilibdi va yuziga katta bosh surati tushirilgan niqob taqib maskaradga taqshrif buyiribdi. Ammo zum o'tmay boshidagi niqobi og'irlik qila boshlabdi. Odamlar uning ustidan rosa kulishibdi. Shundan buyon shuhratparast, manman kishilarga nisbattan ushbu iborani qo'llashadi.

Ushbu ibocraning sinonimlari ham mavchuddir: *Avoir les chevilles qui enflent, être gonflé.*

« A l'eau de rose- soxta va sayoz hikoya »

XIV asrda shoir va yozuvchilar o'z asrlarida atirgul obrazini nihoyatda ko'p marotaba qo'llay boshlashdi va u bora-bora she'riyat nomoyondalarining badiga ura boshladi. Har bir yangi she'riy to'plammi yoki yangi asar chiqqanida odamlar bir-biri bilan fikr almashinar agar u eski siyqasi chiqqan atirgul mavzusida bo'lsa *« A l'eau de rose »* deb qo'yishar edi . Shundan buyon ezma, mijg'ov odamlarga nisbattan ushbu ibora qo'llaniladi.

Ko'pgina frazeologik birliklar atoqli otlar bilan bog'liqdir. Bunga misol tariqasida

Aller (courir, marcher, trotter) comme un Basque- tez yugurmoq

C'est (un) Saint-Jean Bouche d'Or- vaysaqi, safsataboz, nokamtar odam

Bénédiction de Saint –Roch- la'natlash, nafratlash

Yuqoridagi ba'zi atoqli nom bilan ifodalangan iboralarni ko'rib chiqgan edik . Endigi biz taxlil qiladigan iboralar hozirda deyarli qo'llanilmaydi. Ular tarixiy iboralar turiga kiradi. Misol tariqasida Vivre autant que Mathusalem – uzoq umr ko'rish iborasi hozirda deyarli og'zaki nutqda qo'llanilmaydi. Chunki u 14 asrda is'temolga kirib kelgan bo'lib hozirda uning faqatgina ma'nodoshi qo'llaniladi.

Ushbu iboraning kelib chiqish tarixi etimologiyasiga keladigan bo'lsak Mathusalem 14 asrda qishloq hokimlaridan biri bo'lib u 110 yoshida vafot etadi . Uning hokimlig faoliyati 85 yil davom etadi ya'ni u 25 yoshidan to vafot etganigacha hokimlik qiladi chunki u mansabni juda ham yaxshi ko'rar edi hattoki qarib qo'lidan hech ish kelmay qolsa ham mansabini hech kimga bermagan . Bu ibora 17 asrga qadar eng mashxur ibora hisoblangan .

Aller comme un Basque – tez yugurmoq ushbu ibora ham tarixiy iboralar turiga kiradi. Hozirda faqatgina yozma adabiyotlarda ko'rishimiz mumkin . Basque

tarixiy shaxs sifatida bizga tanish lekin qo'yidagi iborada uni tez yuguruvchi shaxs sifatida ta'riflagan. Aslida Basque hech qachon tez yugura olmagan uning yugurishini huddi toshbaqaga qiyoslashgan kinoya sifatida Aller comme un Basque iborasini ishlatishgan.

FRANSUZCHA ANTONIM FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING O'ZIGA XOS STRUKTUR-SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Fransuz tili yo'nalishi 4-kurs talabasi ***Sharipov B.***
Ilmiy rahbar: f.f.n ***N.N.Suvonova***

Antonimiya semantik munosabatlardan biri bo'lib, unda so'z yoki so'z birikmasi semantik nuqtai nazardan bir-biriga qarama-qarshi qo'yilishi mumkin. Semantik nuqtai-nazar asosida esa so'z va so'z birikmalariga xos antonimlik qatorning qat'iy chegerasini ko'rsatuvchi ma'noviy semantik umumiylik yotadi. Antonimiya hodisasiga xos semantik umumiylik deganda, til normalari bilan mustahkamlangan qiyoslash uchun asos tushuniladi.

Frazeologik birliklarni bir-biriga qaram-qarshi qo'yishda albatta, ular o'rtasida semantik umumiylikning mavjud bo'lishi shart va shundagina ularni frazeologik antonimlar deb nomlash mumkin. Bu faqatgina frazeologik birliklarning asosiy mohiyatini tashkil etadigan bir necha umumiy jihatlarni o'z ichiga olishi mumkin, xolos. Masalan, so'zlardagi antonimiya hodisasining hamda frazeologik birliklar, maqol va matallar singari frazeologizmlardagi antonimiya hodiasining o'ziga xos mohiyati tildagi boshqa birliklarda sodir bo'ladigan antonimiya hodisasida namoyon bo'ladigan ma'lum bir umumiy belgilar tizimini o'zida yashirincha aks ettira oladi.

FBlarni struktur tahlil qilish bu- frazeologik iboralarning bir-biri bilan qiyoslash hisoblanadi. Biz ko'rib chiqan misollar ichida eng ko'p uchraydigan ***fe'l+ot, ot+ravish, ot+sifat, fe'l+ predlog+ot+sifat+ot*** shakllari mavjuddir. Ularga misol tariqasida quyidagilarni keltirish mumkin:

Fransuz tili frazeologiyasida shunday frazeologik birliklar turkumi mavjudki, ular o'rtasida hatto, antonimik munosabatlar mezonini ham aniqlashning, qolaversa ular o'rtasidagi o'zaro leksik-semantik va grammatik xususiyatlar majmuini ham farqlashning iloji bo'lmaydi. Ayrim umumiy ma'noli FBlarning borligi bir ma'noli simmetrik antonim juftlarni topish mumkin emasligidan dalolat beradi. Chunki ularning barchasi uchun ham simmetrik tarzda antonim bo'lishi mumkin bo'lgan FBlarni topish mushkul.

Fransuz tilida mavjud frazeologik birliklarning ko'pchilik qismiga mansub bo'lgan semantik jihatdan tadqiq qilingan antonimik formal shakllar frazeologik birliklarning antonimik differensiatorlari sifatida xizmat qilishi mumkin va ular ma'lum bir frazeologik birliklarni antoimik qatorlarga ajratish imkonini berishi mumkin.

Fransuzcha antonimik frazeologik birliklar leksik jihatdan turli xil strukturaga ega bo'lishi mumkin. Masalan, quyidagi misollarga e'tibor qilaylik:

avoir ***un sentiment pour qn.*** *avoir* ***mauvais air***